O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ABSALAMOVA GULMIRA SHARIFOVNA

TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINING TARKIBIY-MAZMUNIY HAMDA KOGNITIV TAHLILI

(INGLIZ VA FRANSUZ TILLARI MISOLIDA)

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Сканировано с CamScanner

UO‘K: 81'373.46:81'37:81'23(=111)(=133.1)

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)

Contents of the dissertation abstract for a Doctor of Science degree (DSc)

Absalamova Gulmira Sharifovna
Tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlarining tarkibiy-mazmuniy hamda kognitiv tahlili (ingliz va fransuz tillari misolida)….....3

Абсаламова Гульмира Шарифовна
Структурно-семантический и когнитивный анализ лингвистических и литературоведческих терминов (на примере английского и французского языков)……..….....33

Absalamova Gulmira Sharifovna
Structural-Semantic and Cognitive Analysis of Linguistic and Literary Studies Terms (based on the English and French Languages)…….....69

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....75

Сканировано с CamScanner

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ABSALAMOVA GULMIRA SHARIFOVNA

TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINING TARKIBIY-MAZMUNIY HAMDA KOGNITIV TAHLILI

(INGLIZ VA FRANSUZ TILLARI MISOLIDA)

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI

AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Сканировано с CamScanner

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.1.DSc/Fil761 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.uzswlu.uz) va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Jo‘rayeva Malohat Muhammadovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Qodirova Fazilat Shukurovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Kurbonova Gulsara Sodiqovna filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
	Sharipova Aziza Abdumanapovna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “17” noyabr soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel: (71) 230-12-91. faks: (71) 230-12-92; e-mail:uzdjtu@uzswlu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1263 - raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel: (71) 230-12-91. faks: (71) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “26” oktabr kuni tarqatildi.

(2026-yil “26” oktabrdagi 29 - raqamli reyestr bayonnomasi)

A.A. Nasirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, fil.f.d., professor

X.B. Samigova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, fil.f.d., professor

J.A.Yakubov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, fil.f.d.,professor

Сканировано с CamScanner

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligi va adabiyotshunosligi doirasida ilm-fan, texnika hamda madaniyat sohalarida shakllangan terminologik bilimlarning universal kommunikatsiya vositasi sifatida muhimligi e'tirof etilgan. Ayniqsa, ingliz va fransuz tillaridagi tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlarini struktur-semantik hamda kognitiv jihatdan chuqur tadqiq etish xalqaro aloqalarni kengaytirish bilan birga, terminlarning real ijtimoiy-madaniy muhitda amaliy qo'llanilish samarasini ta'minlaydi. G'arb filologiyasi terminlarining lisoniy mavqeyi, intertekstual va interdiskursiv funksiyalarini o'rganish hamda ularning kognitiv xususiyatlarini differensial va integral yondashuv asosida aniqlash ilmiy jihatdan muhim hisoblanadi. Mazkur yondashuv soha terminlari mohiyatidagi ichki semantik tafovutlarni ochib berish, shuningdek, inson mantig'i va tafakkuri bilan bog'liq lisoniy konseptualizatsiya hodisasini nazariy jihatdan baholash imkonini yaratadi.

Dunyo tilshunosligida lingvoadabiyotshunoslik terminlarining semantik, diskursiv va kommunikativ-funksional xususiyatlarini tizimli ravishda tahlil qilish, ularning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o'rni va funksional yuklamasini aniqlash ustuvor ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, ingliz va fransuz tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik terminlarining kognitiv mohiyatini aniqlash, ularning transmadaniy kontekstlardagi o'rni va struktur-semantik xususiyatlarini tahlil qilish, yangi terminologik modellarning shakllanishi hamda global kommunikatsiya tizimlariga integratsiyalashuvini o'rganish terminlarning leksikografik taqdimotiga ta'sirini ilmiy asoslashga zamin yaratadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ilm-fan va madaniyat sohalarida xalqaro aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan strategik maqsadlar doirasida tilshunoslik, adabiyotshunoslik hamda umumiy terminshunoslik sohasidagi tadqiqotlar kundalik ehtiyojga aylanmoqda. Aniqrog'i, ingliz va fransuz tillarining zamonaviy va madaniy kommunikatsiyadagi funksional roli ortib borayotgan bir sharoitda qiyoslanayotgan tillarda shakllangan terminologik birliklarning tizimli, struktur-semantik, kognitiv va funksional xususiyatlarini chuqur o'rganish dolzarblik kasb etmoqda. Bunday tadqiqotlar, bir tomondan, kognitiv adabiyotshunoslik yutuqlarini jahon miqyosida targ'ib qilishga, ikkinchi tomondan, global madaniy diskurs bilan integratsiyani ta'minlashga, uchinchi tomondan, lingvistik-gnoseologik qadriyatlar ta'sirida yangi nazariyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek adabiyotshunosligi va kognitiv madaniyatining xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish, zamonaviy adabiyotshunoslik jarayonlari bilan qiyosiy tadqiq etish hamda kognitiv g'oyaviy-estetik, konseptual tamoyillarni ilgari surish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasining davlat dasturida ustuvor yo'nalish sifatida belgilab qo'yilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish va innovatsiya faoliyatini takomillashtirishga oid vazifalar [1] bugungi zamon ilmiy izlanishlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. Xalq so'zi 2017-yil, 8-fevral. № 28 (6722).

Сканировано с CamScanner

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2026-yil 26-maydagi PF-98-son “Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2024-yil 27-iyundagi PQ-239-son “Yoshlarni xorijiy tillarga o‘qitish tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[2]. Zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarida terminlarning tarkibiy-mazmuniy tuzilishi hamda ularning kognitiv xususiyatlarini o‘rganish zamonaviy tadqiqotlar markazida turgan mavzulardan biriga aylanmoqda. Xususan, lingvistik va adabiyotshunoslik terminlarining semantik tizimi kontekst, madaniy muhit va kognitiv modellar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib, ularning mazmuniy modifikatsiyasi global tadqiqotlar doirasida faol o‘rganilayotgan yo‘nalishdir. Oksford universitetida professor Joffri Lich (Geoffrey Leech) ingliz tilidagi lingvistik va adabiyotshunoslik terminlarning stilistik xususiyatlari, Garvard (Harvard) universitetida professorlar Jorj Lakoff (George Lakoff) va Iv Svitser (Eve Sweetser) ingliz tilidagi terminlarning metaforik va konseptual tuzilmalarini kognitiv omillari, Toronto universitetida professor Jon Hambli (John Humbley) ingliz va fransuz adabiyotshunoslik terminlarining ko‘p madaniyatli jamiyatdagi sotsiokulturologik jihatlari, Pekin Chet tillar universitetida professor Van Yin (Wang Yin) ingliz tilidagi terminlarning Xitoy madaniy kontekstida turli semantik transformatsiyalarga duch kelishi va tarjimadagi muqobil variantlar bilan ifodalanishi, Tokio universitetida yirik xalqaro miqyosda tan olingan tilshunos olim Masayosi Shibatani (Masayoshi Shibatani) ingliz adabiyotshunoslik terminlarining fonologik va morfosintaktik moslashuvi, shuningdek, ularning Yaponiya madaniy kodlariga integratsiyasi, Boloniya universitetida tilshunos olim Tullio de Mauro (Tullio De Mauro) ingliz tilidagi terminlarning genealogik va etimologik ildizlari, ularning madaniy qatlamlardagi tarixiy-kulturologik semantik kengayishlari, Montpelliyer universitetida professor Jan-Pyer Myonye (Jean-Pierre Meunier) fransuz tilidagi terminlarning tarjimada ekvivalentlik va adekvatlikni ta’minlash usullari, Monreal universitetida professor Andrea Ganyon (Andréa

[2] Sharh quyidagi manbalar asosida taqdim etildi:https://www.unibo.it, https://www.unistra.fr, https://www.sorbonne-universite.fr, https://www.umontpellier.fr, https://www.umontreal.ca, https://linguanet.ru, https://spbu.ru

Сканировано с CamScanner

Gagnon) fransuz xalqaro terminlarining madaniyatlararo semantizatsiyasi, Moskva davlat lingvistika universitetida olima Marina Alekseyeva (Marina Alekseeva) fransuz adabiyotshunoslik terminlarining Rossiya madaniy kontekstida turli semantik modifikatsiyalarga uchrashining lingvokulturologik jihatlari, A.V.Ponomaryov va I.S.Nikitina terminlarning semantik funksiyalari, adabiyotshunoslik terminlarining ma'noviy asoslari hamda madaniy dominantalarini tadqiq etishgan.

Xorijiy tadqiqotlar ingliz va fransuz tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik terminlarining xalqaro muomalaga kirishida ularning semantik o'zgarishi, konnotativ kengayishi va madaniy kontekstlarga mos ravishda qayta talqin etilishi muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Har bir termin o'z etimologiyasi, stilistik xususiyati va funksional yuklamasiga ko'ra turli madaniyatlarda ma'nodosh bo'lishiga qaramay, mazmun va qo'llanilishida farqlar yuzaga kelib, tarjima amaliyotining madaniyatlararo semantik moslashuvini talab qiladi, terminlarda metaforik qatlamlarning boyishi, tarixiy-ma'naviy konnotatsiyalarning shakllanishi hamda milliy ma'no ko'lamining kengayishiga olib keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslik doirasida ilmiy terminlarning ichki strukturasi, semantik qatlamlari va gnoseologik xususiyatlarini kompleks tahlil qilish ustuvor hamda dolzarb ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, lingvistik va adabiyotshunoslikka oid terminlarning semantik tizimi kontekst, madaniy muhit va kognitiv tizimlar bilan uzviy aloqada shakllanib, ularning mazmuniy o'zgarishlari va talqinlari xalqaro ilmiy izlanishlar doirasida keng tadqiq etilmoqda.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida ingliz tilshunosligi doirasida I.V.Arnold (I.V.Arnold), B.Tarlinskaya (B.Tarlinskaya), Joffri Lich (Geoffrey Leech) va Jon Layons (John Lyons)[3] singari olimlar til va ma'no o'rtasidagi aloqalarni semantik-paradigmatik negizda yoritgan bo'lsa, britaniyalik Syuzan Bessnett (Susan Bassnett) va Mona Beyker (Mona Baker)[4] singari olimalar terminlarning tarjimaviy ekvivalentligi va konseptual o'zlashuvi masalalariga e'tibor qaratishgan. Amerika tilshunoslik maktabi vakillari Noam Chomskiy (Noam Chomsky), Del Hayms (Dell Hymes), Jorj Lakoff (George Lakoff), Devid Kristal (David Crystal), D. Alan Kruz (D. Alan Cruse, Uilyam Kroft (William Croft)[5] kabi olimlar terminlarning gnoseologik, epistemiologik, sotsiolingvistik hamda kognitiv aspektlari doirasida tadqiqot olib borishgan.

---

[3] Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка: учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. – М.: Высшая школа, 1986. – 295 с.; Тарлинская М.Г. Шекспир и вокруг него. Стихосложение английской драмы. – Москва: Наука, 2018. – 278 с.; Leech G. Semantics: The Study of Meaning. – H.: Penguin Books, 1974. – P. 361.

[4] Bassnett S. Translation Studies. – L.: Routledge, 3rd edition, 2002. – P.176.; Bassnett S. Translation Studies. – L.: Routledge, 3rd edition, 2002. – P.176.; Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 2nd ed. – London; New York: Routledge, 2011. – 352 p.

[5] Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge, 1965. – P. 251.; Hymes D. Language in Culture and Society: A Reader in Linguistics and Anthropology. – NY.: Harper Row, 1964. – P. 762.; Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – With a New Afterword. – Chicago; London: University of Chicago Press, 2003. – 276 p.;
Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. 6th ed. – Malden, MA: Blackwell Publishing, 2008. – 560 p.; Lyons J. Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – P. 897.; Lakoff G., Thompson H. Introduction to cognitive grammar // Proceedings of the 1st Annual Meeting of the Berkeley Linguistics Society. – Berkeley, CA: Berkeley Linguistics Society, 1975. – P. 295–313.

Сканировано с CamScanner

Fransuz leksikografiya maktabining nazariy asoschilaridan Alen Rey (Alain Rey) va Bernar Kemada (Bernard Quemada), shuningdek, termin yaratish va uning normallashtirish masalalarini o‘rgangan, terminologik tizimlarning standartlashuvi va ko‘p tilli terminologiya muammolariga alohida e’tibor qaratgan Jan Klod Bulanje (Jean-Claude Boulanger), neologizmlarni ijtimoiy, madaniy va texnologik o‘zgarishlar bilan bog‘lab tadqiqot olib borgan Lui Gilber (Louis Guilbert)[6] kabi yetakchi tilshunos va terminshunos olimlar leksikografiya, semantika, neologiya hamda terminologiya fanlarining nazariy va amaliy asoslarini rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shganlar.

Shu bilan birga, tilshunos J.Layons (J.Lyons) semantika nazariyasini tizimli asosda rivojlantirib, termin ma’nosining strukturaviy tahliliga muhim hissa qo‘shgan, G.Lakoff kognitiv metafora nazariyasi orqali terminlarning konseptual mohiyatini yoritgan. Shuningdek, ingliz va fransuz lingvoadabiyotshunoslik terminlarining strukturaviy qurilishi, semantik differensial belgilari, madaniy kodlanishi hamda kognitiv talqini doirasida qator fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan[7].

Qolaversa, Yevropaning turli mintaqalarida Ferdinand de Sossyur (Ferdinand de Saussure), Margreta Durst-Andersen (Margrethe Durst-Andersen) va Maykl Kronin (Michael Cronin)[8]lar tomonidan konseptual strukturalizm, tarjima nazariyasi hamda transmadaniy kommunikatsiya yo‘nalishlari doirasida terminologik tizimlarning funksional, semantik va kommunikativ asoslari tahlil etilgan. Shu bilan birga T.Paykedei (T.Paikeday), A.Vejbitskaya (A.Vezhbitskaya), M.Snell-Hornbi (M.Snell-Hornby), J.Haus (J.House), J.S.Ketford (J.C.Catford) [9] singari olimlar ingliz va fransuz lingvoadabiyotshunoslik terminlarining qiyosiy-lingvistik, funksional-semantik qirralarini tadqiq etishgan.

Shuningdek, belgiyalik tilshunos Rita Temmerman terminlarni prototipik va kognitiv kategoriyalar sifatida talqin qilib, klassik terminologiyaning normativ yondashuvini qayta ko‘rib chiqqan, yapon tadqiqotchisi Kyo Kageura termin hosil bo‘lishini kognitiv-statistik modellar asosida izohlagan, ispan tilshunosi Pamela Faber terminlarni kognitiv freymlar tizimidagi konseptual birlik sifatida asoslagan, daniyalik terminshunos olim Henrik Bergenhols (Henrik Bergenholtz) va amerikalik terminolog Syu Ellen Rayt (Sue Ellen Wright) foydalanuvchiga yo‘naltirilgan kognitiv

---

[6] Rey A. La terminologie: noms et notions. – Paris: Presses Universitaires de France, 1979. – P. 127.; Quemada B. Les Dictionnaires du français moderne, 1539–1863. Étude sur leur histoire, leurs types et leurs méthodes. – Paris: Didier, 1968. – 684 p.; Boulanger J.-C., Gambier Y. Bibliographie fondamentale et analytique de la terminologie, 1962–1984. – Québec: Centre international de recherche sur le bilinguisme, Université Laval, 1989. – 109 p.; Guilbert L. La créativité lexicale. – Paris: Larousse, 1975. – P. 285.

[7] Lyons J. Linguistic Semantics: An Introduction – Cambridge: Cambridge University Press, 1995. – P. 376.; Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – With a New Afterword. – Chicago, London: University of Chicago Press, 2003. – 276 p.

[8] de Saussure F. Course in General Linguistics. – N. Y.: Philosophical Library, 1959. – P.240.; Durst-Andersen M. Linguistic Supertypes: A Cognitive-Semiotic Theory of Human Communication. – B.: Mouton de Gruyter, 2011. – P. 395.; Cronin M. Translation and Globalization – L.: Routledge, 2003. – P.176.

[9] Paikeday T. The Native Speaker is Dead! – An Informal Discussion of a Linguistic Myth with Noam Chomsky and Other Linguists. – T.: Paikeday Publishing, 1985. – P.132; Wierzbicka A. Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-specific Configurations. – N. Y.: Oxford University Press, 1992. – P. 496.; Snell-Hornby M. Translation Studies: An Integrated Approach. – Ams.: John Benjamins Publishing, 1988. – P.175.; House J. Translation Quality Assessment: A Model Revisited. – Tübingen: Gunter Narr Verlag, 1997. – 207 p.; Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation: An Essay in Applied Linguistics. – L.: Oxford University Press, 1965. – P. 103.

Сканировано с CamScanner

jarayon sifatida talqin qilgan, shu bilan birga, M.T.Kabre [10] terminologiyani kommunikativ-kognitiv tizim sifatida izohlab, terminlarning strukturaviy va mazmuniy xususiyatlarini yoritgan.

Rossiya ilmiy maktabi vakillari V.V.Vinogradov, A.A.Reformatskiy, V.N.Komissarov, A.V.Fyodorov, N.K.Garbovskiy, V.I.Karasik, A.V.Superanskaya[11] kabi olimlar til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar, ularning umumiy va o'ziga xosligi, kognitiv mohiyatini tadqiq etgan. Bu tadqiqotlarda konseptual strukturalizm, tarjima nazariyasi, kommunikativ-pragmatik yondashuvlar orqali terminlarning funksional tizimi, ularning semantik differensial belgilarini ochib berishga e'tibor qaratilgan.

Osiyo ilmiy muhitida xitoy, koreys va yapon tilshunoslari ramzlar, madaniy til belgilari va semantik parallelizm asosida terminlarni o'rgangan bo'lsa, Yevropa, xususan, Germaniya terminologiya maktabining asoschisi Oygen Vyuster (Eugen Wüster) [12] tomonidan terminlarning tilshunoslik, mantiq, ontologiya va informatika bilan bog'liq umumnazariy asoslari ishlab chiqilgan, fransuz tadqiqotchilari Loik Depeker (Loïc Depecker), Mari-Klod L'Om (Marie-Claude L'Homme), Jan-Klod Anskombr (Jean-Claude Anscombre)[13] terminlarning semantik va diskursiv jihatlarini tahlil qilgan. Bundan tashqari, Ronald Langaker (Ronald Langacker) kognitiv grammatika asosida til birliklarining konseptual tuzilishini yoritgan, Jeyms Pustejovskiy (James Pustejovsky) generativ leksikon nazariyasi orqali termin ma'nosining dinamik modelini ishlab chiqqan, Charlz Fillmor (Charles Fillmore) freym semantikasi orqali terminlarning bilim tizimidagi o'rnini izohlab bergan, Lin Bouker (Lynne Bowker) [14] terminlarning ko'p o'lchovli

---

[10] Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2000. – P.258.; Faber P. A Cognitive Linguistics View of Terminology and Specialized Language. – Berlin; Boston: De Gruyter Mouton, 2012. – P. 337.; Kageura K. The Dynamics of Terminology: A Descriptive Theory of Term Formation and Terminological Growth. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2002. –P. 322.; Faber P. A Cognitive Linguistics View of Terminology and Specialized Language. – Berlin; Boston: De Gruyter Mouton, 2012. – P. 337.; Wright R. Latin and the Romance Languages in the Early Middle Ages. – University Park, PA: Pennsylvania State University Press, 1996. – 299 p.; Cabré M. T. Elements for a Theory of Terminology: Towards an Alternative Paradigm // Terminology. International Journal of Theoretical and Applied Issues in Specialized Communication. – 2000. – Vol. 6, No. 1. – P. 35–57.

[11] Виноградов В.В. Вступительное слово // Вопросы терминологии. – М.: Наука, 1961. – С. 3–10.; Реформатский, Александр Александрович. Что такое термин и терминология Москва: 1959. – С.14; Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. – М.: Высшая школа, 1990. – 253 с.; Фёдоров А.В. Введение в теорию перевода. – М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1958. – 374 с.; Богин Г.И. Язык и семиотика. – М.: 1991. – С.200; Гарбовский Н. К. Теория и практика перевода. – М.: Академия, 2004. – С. 347.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – С.356; Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – 366 с.

[12] Wüster E. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. – Wien; New York: Springer, 1979. – S. 214.

[13] Depecker L. Entre signe et concept: éléments de terminologie générale. – Paris: Presses Sorbonne Nouvelle, 2002. – P. 198.; L'Homme M.-C. La terminologie: principes et techniques. – Montréal: Presses de l'Université de Montréal, 2004. – P.278.; Anscombre J.-C., Ducrot O. L'argumentation dans la langue. – Bruxelles: Mardaga, 1983. – P.184.

[14] Langacker R.W. Foundations of Cognitive Grammar. Vol. 2: Descriptive Application. – Stanford: Stanford University Press, 1991.; Pustejovsky J. The semantics of lexical underspecification, Folia Linguistica. – 1998. – Vol. 32, № 3–4. – P. 323–348.; Fillmore C.J. Frame semantics and the nature of language // Origins and Evolution of Language and Speech. – New York: Annals of the New York Academy of Sciences, 1976. – Vol. 280. – P. 20–32.; Bowker L. Multidimensional Classification of Concepts and Terms // Handbook of Terminology Management. Vol. 1: Basic Aspects of Terminology Management / ed. by S. E. Wright, G. Budin. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1997. – P. 131–143.

Сканировано с CamScanner

klassifikatsiyasini asoslagan. Fransuz tilshunosi Yuliya Kristeva (Julia Kristeva) va Karib havzasi adibi Eduar Glissan (Edouard Glissant)[15] terminlarni madaniy o'zlikni ifodalovchi lingvopoetik birliklar sifatida o'rgangan.

Mazkur ilmiy qarashlarning mantiqiy davomi sifatida zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikda terminologik birliklarning struktur-semantik va konseptual xususiyatlarini o'rganish keng ko'lamda rivojlanib bormoqda, jumladan, O'zbekistonda N.Hotamov, H.Dadaboyev, M.Umarxo'jayev, Sh.Safarov, I.Sadiqova, S.Nurmatova, O.Ahmedov, D.Xodjayeva, D.Kadirbekova, P.Nishonov, N.Kuldashova, G.Hojiyeva, X.Paluanova, G.Ergasheva[16] kabi tilshunos olimlar tomonidan terminlarning leksik-semantik, qiyosiy-tipologik, tarjimaviy va kognitiv jihatlari turli materiallar, xususan, fransuz va ingliz tillari misolida atroflicha tahlil etilgan.

Ilgari olib borilgan tadqiqotlardan farqli o'laroq, mazkur ishda muammo kompleks yondashuv asosida yoritilib, har ikkala til terminotizimining kognitiv xususiyatlari qamrovli tarzda tahlil qilinishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ingliz va fransuz lingvoadabiyotshunoslik terminlarining qiyosiy, tarkibiy-mazmuniy, struktur-semantik hamda kognitiv-konseptual qirralari o'rganiladi. Qolaversa, tadqiqotda kognitiv va diskursiv yondashuvlar asosida terminlarning semiozis, metaforizatsiya va lingvopoetik identifikatsiya jarayonlaridagi funksional jihatlari tahlil etildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutining "Qiyosiy tilshunoslikning dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

---

[15] Kristeva J. Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art. – N.Y.: Columbia University Press, 1980. – P.368.; Glissant É. Introduction to a Poetics of Diversity / translated by Celia Britton. – Liverpool: Liverpool University Press, 2020. – P.152.: Gallimard, 1990. – P.224.

[16] Хотамов Н.Т. Развитие узбекской литературной терминологии в советский период: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук – Москва, 1971. – 28 с; Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 186 с.; М.Э.Умархўжаев. Принципы составления многоязычного фразеологического словаря: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук – М., 1972. – 25 с.; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик: рисола. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.; Садыкова И.Х. Принципы составления англо-русско-узбекского учебного словаря юридических терминов: Дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1998. – 174 с.; Нурматова С.Х. Истоки формирования и функционирование астроавиакосмической терминологии в лексике английского, русского и узбекского языков: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 2000. – 24 с.; Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол. фан. д-ри дисс. – Т., 2016. – 255 б.; Ходжаева Д.И. Тилшунослик терминларининг лексикографик таҳлили (инглиз, рус ва ўзбек тиллари изоҳли луғатлари мисолида): Фалсафа доктори. ... дисс. автореф. – Т., 2018. – 53 б.; Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникация технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари: Фалсафа доктори. ... дисс. автореф. – Т., 2017. – 44 б.; Нишонов П.П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол. фан. ном. дисс. автореф. – Т., 2009. – Б. 28.; Кулдашова Н.Б. Француз ва ўзбек тилларида спорт терминологиясининг миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2020. – Б. 24.; Хожиева Г.С. Санъатга оид терминларнинг лексик-семантик ва миллий-маданий таҳлили (француз ва ўзбек тиллари мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2023. – Б. 23; Палуанова Х.Д. Инглиз, ўзбек, рус ва қорақалпоқ тилларида экологик терминларнинг деривацион-семантик принциплари : дисс. ... (PhD). – 2016 йил 30 июнь.; Эргашева Г.И. Турли тизимдаги тилларда гендерга оид терминологиянинг шаклланишида лингвистик ва экстралингвистик омиллар. Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. автореф. – Т., 2018. – Б.81.

Сканировано с CamScanner

Tadqiqotning maqsadi ingliz va fransuz tillaridagi tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik terminlarining tarkibiy-mazmuniy va kognitiv xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va fransuz tillaridagi lingvoadabiyotshunoslik terminlarining morfemik tarkibi, semantik yadrosi va sintaktik tuzilishini kompleks tahlil qilish orqali ularning shakllanish va taraqqiyot xususiyatlari, strukturaviy tiplari hamda o'ziga xos lingvistik belgilarini aniqlash;

qiyoslanayotgan tillarda terminlarning izohli lug'atlardagi ta'rifi, tasnifi va stilistik registrini o'rganish, ularning normallashuvi jarayonini, sinonimik birliklari hamda semantik tafovutlarini tahlil qilish, shuningdek, ingliz va fransuz leksikografiyasiga xos konseptual yondashuvlarni yoritish;

lingvoadabiyotshunoslik terminlarini tematik guruhlarga ajratish, paradigmatik tahlil asosida ularning semantik munosabatlari, sinonimik tizimini hamda giperonim-giponim aloqalarini aniqlash, shuningdek, termin tizimining konseptual va semantik sathlarini asoslash;

ingliz va fransuz tillaridagi terminlarning hosil bo'lish usullarini hamda ularning struktur-semantik o'zgarishlarini yoritish, zamonaviy nutq kontekstida yuzaga kelayotgan ma'no kengayishlari va konseptual integratsiyalarni lingvistik jihatdan tahlil qilish;

tarjima jarayonida terminlarning ekvivalentligi, adekvatligi hamda madaniy konnotatsiyalarini qiyosiy o'rganish, tarjimadagi semantik aniqlik va funksional moslik bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;

lingvoadabiyotshunoslik terminlarini kognitiv tafakkur, konseptual maydon va ijtimoiy ong nuqtayi nazaridan tahlil qilish, ularning kognitiv-semiotik makon hamda diskursdagi kommunikativ funksiyasini aniqlash, shuningdek, gnoseologik, estetik va ideologik yuklamasini sotsiokognitiv mezonlar asosida baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va fransuz tillarida qo'llanilgan tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlari tanlandi. Terminlarning mazmuniy-ta'rifiy, semantik hamda tafakkurga oid xususiyatlari Kris Boldikning "The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms", shuningdek, fransuz tilidagi "Dictionnaire des littératures de langue française", "Petit Larousse Illustré 2020" va "Le Grand Robert de la Langue Française" kabi lug'atlar asosida o'rganildi.

Tadqiqot predmeti ingliz va fransuz tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik terminlarining tarkibiy-mazmuniy va kognitiv xususiyatlarini tizimli ravishda o'rganishni qamrab oladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda deskriptiv, qiyosiy-tipologik, struktur-semantik, komponent, paradigmatik va sintagmatik, leksikografik, diskursiv, konseptual hamda freym tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va fransuz tilshunosligi hamda adabiyotshunosligi terminlarining derivatsion va etimologik tuzilishi tillarning tarixiy, madaniy hamda gnoseologik qatlamlari bilan uzviy bog'liqligi, ularning affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya va

Сканировано с CamScanner

sintaktik tuzilmalar orqali shakllanishi, shuningdek, lingvistik moslashuvchanlik, semantik barqarorlik hamda diskursiv aniqlik tamoyillariga tayanishi struktur-semantik metod asosida aniqlangan;

ingliz va fransuz terminologik tizimlarining semantik-funksional hamda strukturaviy farqlanish xususiyatlari ingliz tili terminologiyasida kontekstual moslashuvchanlik va polisemantik xususiyatlarning ustuvorligi, fransuz tili terminologiyasida esa markazlashgan, normativ va tizimli yondashuv asosida shakllangan ko'p komponentli terminologik birliklarning yetakchi mavqeyi diskursiv tahlil natijalariga tayanib dalillangan;

lingvistik hamda adabiyotshunoslik terminologiyasining struktur-semantik xususiyatlari fransuz strukturalistik maktabida "langue/parole", "énonciation" hamda "structure profonde" tushunchalari orqali tilning ijtimoiy-tizimli mohiyati ifodalanganligi, ingliz tilshunosligida esa "deep/surface structure" modeli vositasida sintaktik-semantik qatlamlarning kognitiv jihatdan tadqiq etilishi kognitiv-lingvistik tahlil asosida dalillangan;

ingliz va fransuz tilshunosligi hamda adabiyotshunosligi terminologik birliklarining har bir madaniyatning bilim va tafakkur va ideologik tizimini aks ettiruvchi diskursiv vosita sifatida namoyon bo'lishi, ingliz tilida empirik yondashuv, eksperimentallik va soddalashtirish tamoyillari asosida "usability" hamda "clarity" mezonlarining ustuvorligi, fransuz tilida esa nazariy-falsafiy qatlam, ratsional tizimlilik va madaniy suverenitet negizida "cohérence" hamda "abstraction" tamoyillarining yetakchiligi konseptual va lingvokognitiv tahlillar asosida isbotlangan;

ingliz va fransuz tillaridagi terminologik birliklarning ko'p qatlamli semantik tuzilishga egaligi, ingliz tilidagi terminlarning funksional-pragmatik moslashuvchanlik bilan ajralib turishi, fransuz tilidagi terminlarning esa institutsional normativlik va jamoaviy tafakkurga tayangan nazariy ustuvorlik asosida shakllanishi struktur-semantik va komparativ metodlar yordamida asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dissertatsiyada fransuz tilida faol qo'llaniladigan tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlari statistik va distributiv tahlil asosida mavzuiy guruhlar hamda tagguruhlarga tizimli ravishda ajratilgan, guruhlash jarayonida terminlarning semantik parallelizmi, tarkibiy birliklari, sinonimik almashinuvi va funksional ixtisoslashuvi mezon sifatida qo'llanilgan, terminlar yasalishining derivatsion modellariga tayanilgan holda ularning tarkibiy shakllanish qonuniyatlari lug'atlar yaratishda va terminografik loyihalarni ishlab chiqishda mustahkam amaliy tayanch vazifasini o'tashi asoslangan;

ingliz va fransuz tillarida terminlarning paydo bo'lishi, ularning tarixiy taraqqiyoti hamda zamonaviy diskursga integratsiyasi o'rganilib, lingvistik evolyutsiyaning muhim bosqichlari yoritilgan, shuningdek, terminlarning tarkibiy-mazmuniy va morfosintaktik xususiyatlari morfosemantik modellar asosida tahlil qilingan;

ingliz va fransuz tilidagi lingvistik hamda adabiyotshunoslik terminlarining matnlardagi funksional vazifasi va kommunikativ-tekstual yuklamalari tahlil qilinib,

Сканировано с CamScanner

terminlarni qo‘llash jarayonida yuzaga keladigan uslubiy va semantik tafovutlar aniqlangan va izohlangan;

tadqiqotda terminlarning madaniyatlararo muloqotdagi talqini, xalqaro kontekstdagi semantik mosligi hamda madaniy dominantalarga bog‘liqligi kognitiv konsepsiyalar negizida tahlil qilingan, ular milliy tafakkur va ikki til doirasidagi dunyoqarashning lisoniy aksi ekanligi, tarjimashunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda til siyosati sohalarida amaliy qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali modellarning shakllantirilishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, nazariy ma’lumotlar va faktik materiallarni qo‘llashda ishonchli manbalardan foydalanilganligi, chiqarilgan xulosalarning dissertatsiyada qiyosiy-tipologik, tarkibiy-mazmuniy, leksik-semantik, struktur, stilistik, kognitiv-konseptual, paradigmatik kabi tahlil qilinganligi, nazariy g‘oyalar va ma’lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar amalda sinovdan o‘tkazilganligi hamda natijalar vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ingliz va fransuz tillaridagi tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik terminlarining semantik, strukturaviy va funksional jihatlari tahlil qilinib, tadqiqot asosida “Lingvoadabiyotshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” yaratilib, terminlarning etimologik manbasi, kontekstual qo‘llanilishi, semantik rivoji va tarjimaviy ekvivalentlari ilmiy asosda izohlanib, lug‘at ingliz va fransuz tillarining terminologik tizimlarini yagona ilmiy mezonlar asosida uyg‘unlashtirdi hamda terminlar orasidagi universallik va farqlovchi belgilarni aniqlashga imkon berdi. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida “Tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlarining tarkibiy-mazmuniy hamda milliy-madaniy tahlili (ingliz va fransuz tillari misolida)” nomli monografiya nashr etildi. Mazkur ilmiy-amaliy natijalar filologiya, tarjimashunoslik, lingvistika yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talaba hamda tadqiqotchilar, shuningdek, tarjimonlar uchun samarali o‘quv-uslubiy manba sifatida qo‘llanishi mumkin. Shu tariqa dissertatsiyada olingan ilmiy xulosalar o‘quv jarayonini boyituvchi, terminologik tafakkurni rivojlantiruvchi va ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali yo‘naltiruvchi natijaviy ishlanma tizimiga aylantirildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati ingliz va fransuz tillaridagi tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlarining strukturaviy-mazmuniy, kognitiv-semantik xususiyatlarini aniqlash, ularning lingvokulturologik hamda leksikografik jihatdan tahlil etilishi, terminlarning genetik-etimologik ildizlari, semantik evolyutsiyasi, yasalish usullari va diskurs kontekstidagi funksional voqelanishini o‘rganish orqali namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari “Tilshunoslikka kirish”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Tili o‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti”, “Matn lingvistikasi”, “Semantika va so‘z tahlili” kabi fanlar bo‘yicha yaratiladigan darslik, o‘quv qo‘llanma, izohli lug‘at va metodik manbalarni takomillashtirishga ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi ingliz va fransuz tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlarining tarkibiy-mazmuniy hamda kognitiv xususiyatlari tadqiqini amalga oshirish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

Сканировано с CamScanner

ingliz va fransuz tilshunosligi hamda adabiyotshunosligi terminlarining derivatsion va etimologik tuzilishi tillarning tarixiy, madaniy hamda gnoseologik qatlamlari bilan uzviy bog‘liqligi, ularning affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya va sintaktik tuzilmalar orqali shakllanishi, shuningdek, lingvistik moslashuvchanlik, semantik barqarorlik hamda diskursiv aniqlik tamoyillariga tayanishi struktur-semantik metod asosida aniqlanganligiga oid natija va xulosalardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan KA-3-007 “O‘zbekistonda fan va ta’lim integratsiyalashuvi jarayonining ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy, konseptual falsafiy muammolari tahlili” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 28-fevraldagi №04/11-3139-son ma’lumotnomasi). Natijada ingliz va fransuz tillaridagi lingvoadabiyotshunoslik terminlarining izohli lug‘atlaridagi terminografik tamoyillari aniqlanib, ularning leksikografik ta’rifi, konseptual chegaralari o‘rganilgan, terminlarning standartlashuvi hamda madaniyatlararo muloqotda samarali til vositalarini ishlab chiqishga doir takliflar ishlab chiqilgan;

ingliz va fransuz terminologik tizimlarining semantik-funksional hamda strukturaviy farqlanish xususiyatlari ingliz tili terminologiyasida kontekstual moslashuvchanlik va polisemantik xususiyatlarning ustuvorligi, fransuz tili terminologiyasida esa markazlashgan, normativ va tizimli yondashuv asosida shakllangan ko‘p komponentli terminologik birliklarning yetakchi mavqeyi diskursiv tahlil natijalariga tayanib dalillanganligiga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy universitetida PZ-201709134 “Filologiya yo‘nalishi bo‘yicha ingliz tili o‘rganishni baholash sifatining shakl va tamoyillari” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 14-fevraldagi №04/11-2610-son ma’lumotnomasi). Natijada ingliz va fransuz tilidagi lingvoadabiyotshunoslik terminlarining yasalishi, ularning struktur-semantik transformatsiyalari derivatsiya, kompozitsiya va qisqartmalar orqali hosil bo‘lishi hamda semantik o‘zgarishi asoslab berilgan;

lingvistik hamda adabiyotshunoslik terminologiyasining struktur-semantik xususiyatlari fransuz strukturalistik maktabida “langue/parole”, “énonciation” hamda “structure profonde” tushunchalari orqali tilning ijtimoiy-tizimli mohiyati ifodalanganligi, ingliz tilshunosligida esa “deep/surface structure” modeli vositasida sintaktik-semantik qatlamlarning kognitiv jihatdan tadqiq etilishi kognitiv-lingvistik tahlil asosida dalillanganligiga oid xulosa va natijalardan Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida bajarilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus + dasturi doirasida amalga oshirilayotgan “Open Food Innovation University – OFINU” xalqaro loyihasida foydalanilgan (Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining 2025-yil 21-maydagi №01/2-691-son ma’lumotnomasi). Natijada OFINU xalqaro loyihasi doirasida ta’lim sifatini oshirish, xorijiy talabalar

Сканировано с CamScanner

uchun qulay o‘quv muhitini yaratish hamda tarjimashunoslikdagi dolzarb muammolarga innovatsion yechimlar ishlab chiqilib, tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan;

ingliz va fransuz tilshunosligi hamda adabiyotshunosligi terminologik birliklarining har bir madaniyatning bilim va tafakkur va ideologik tizimini aks ettiruvchi diskursiv vosita sifatida namoyon bo‘lishi, ingliz tilida empirik yondashuv, eksperimentallik va soddalashtirish tamoyillari asosida “usability” hamda “clarity” mezonlarining ustuvorligi, fransuz tilida esa nazariy-falsafiy qatlam, ratsional tizimlilik va madaniy suverenitet negizida “cohérence” hamda “abstraction” tamoyillarining yetakchiligi konseptual va lingvokognitiv tahlillar asosida isbotlanganligiga doir ilmiy xulosalardan Qarshi davlat universitetida 2021/2023-yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR-3181 “Reinforcing English Language Competence at Karshi State University” xalqaro grant loyihasi doirasida yangi o‘quv reja va modullarni ishlab chiqishda samarali qo‘llanilgan. Tadqiqot natijalari asosida bilishga oid yondashuv orqali ingliz va fransuz tillaridagi lingvistik hamda adabiy terminlarning madaniy kontekstdagi o‘rni, tarjimada ekvivalentlik va madaniy moslikni ta’minlash tamoyillari ishlab chiqilgan hamda ta’lim jarayonida terminlarning qo‘llanilish samaradorligi oshirilgan (Qarshi davlat universitetining 2025-yil 22-sentabrdagi №04/4835-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida yaratilgan o‘quv materiallari fanlararo integratsiyani mustahkamlash, tarjima sifatini yaxshilash va kognitiv kompetensiyani rivojlantirish jarayonlariga hissa qo‘shgan;

ingliz va fransuz tillaridagi terminologik birliklarning ko‘p qatlamli semantik tuzilishga egaligi, ingliz tilidagi terminlarning funksional-pragmatik moslashuvchanlik bilan ajralib turishi, fransuz tilidagi terminlarning esa institutsional normativlik va jamoaviy tafakkurga tayangan nazariy ustuvorlik asosida shakllanishi struktur-semantik va komparativ metodlar yordamida asoslanganligiga oid xulosalardan Samarqand viloyati teleradiokanali “Samarqand” telekanalining “Oltin halqa” ko‘rsatuvi hamda “Samarqand” radiokanalining “Kun mavzusi” eshittirishlari ssenariylarini tuzishda foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokanalining 2025-yil 23-maydagi №01-07/193-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuv va eshittirishlarning ilmiy-ommaboplik darajasini oshirishga, adabiyotlar bilan boyitishga, shuningdek, keng auditoriya, jumladan, radio tinglovchilar orasida sohaga oid bilimlarning kengayishiga samarali ta’sir ko‘rsatgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy maqola shaklida, jumladan, 5 tasi xalqaro va 2 tasi respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ikki monografiya, bir izohli lug‘at, jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiya

Сканировано с CamScanner

asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 11 ta maqola, jumladan, 8 ta respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, besh bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 258 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi keltirilgan, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqotdan kutilayotgan natijalar, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning *"Terminologik tizimlarning nazariy asoslari"* deb nomlangan *birinchi bobi* tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminologiyasiga oid nazariy yondashuvlar, terminologik birliklarni tadqiq etish metodologiyasi hamda ularning tarixiy shakllanish va rivojlanish jarayonlarini qamrab olib, terminologik tizimlarning umumiy nazariy talqini, strukturaviy, semantik va funksional xususiyatlari hamda lingvistik tizimdagi o'rni, ingliz va fransuz tillarida tilshunoslik terminlarining shakllanish bosqichlari, rivojlanish dinamikasi va zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari, shuningdek, ingliz va fransuz adabiyotshunoslik terminlarining tarixiy genezisi, manbalari, semantik taraqqiyoti hamda milliy-madaniy va ilmiy tafakkur bilan bog'liq jihatlari o'rganildi.

Tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminologiyasining nazariy asoslari zamonaviy terminologiya, kognitiv tilshunoslik, diskurs tahlil va lingvokulturologik yondashuvlar kesimida yoritilib, terminlarning oddiy nomlovchi birlik emas, balki ilmiy bilimni shakllantiruvchi, tizimlashtiruvchi va uzatuvchi konseptual birlik ekanligi oydinlashdi. E.Vyuster terminologiyani ixtisoslashgan soha tushunchalarini aniqlash, tizimlashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish vositasi sifatida talqin qilgan bo'lsa[17], M.T.Kabre terminni tushunchalararo bog'liqlikni aks ettiruvchi konseptual bilim tizimi bilan bog'laganligi ma'lum bo'lib, [18] shu asosda terminlarning shakllanishi "konsept → nomlanish" jarayoni orqali izohlanib, terminologik birliklarning tafakkur, bilim, til va kommunikativ ehtiyojlar uyg'unligida yuzaga kelishi ko'rsatildi.

Terminologik birliklarning ma'nosi va qo'llanilishi qat'iy ta'rif bilan cheklanmasdan, kontekst, diskurs va ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog'liq holda shakllanishi, B. de Besse tomonidan terminologik va leksikografik ta'riflar farqining tushunchalararo ierarxiya hamda umumiy leksik ma'no asosida

---

[17] Wüster, Eugen La théorie générale de la terminologie – un domaine interdisciplinaire impliquant la linguistique, la logique, l'ontologie, l'informatique et les sciences des objets. Essai de définition de la terminologie. Actes du colloque international de terminologie – Québec: 1976. – P.57–58.

[18] Cabré M. T. Terminology: Theory, Methods, and Applications. – Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1999. – P.15-40.

Сканировано с CamScanner

ajratilishi [19], G.Rondo tomonidan terminologiya va leksikologiya o‘rtasidagi metodologik tafovutlarning belgilanishi[20], O.S.Axmanova tomonidan terminning ilmiy tushuncha asosida shakllanuvchi birlik sifatida baholanishi[21], G.O.Vinokur tomonidan terminlarning sun’iy emas, balki ehtiyoj natijasida yuzaga kelishi ta’kidlanishi[22], A.S.Gerdga ko‘ra terminlarda aniqlik va to‘liqlik mezonining ilgari surilishi[23] hamda V.G.Gak tomonidan terminning alohida lug‘aviy birlik[24] emas, balki kontekstual funksiya sifatida talqin qilinishi terminlarni normativ, funksional, kognitiv va diskursiv birlik sifatida o‘rganish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Ingliz va fransuz tilshunoslik-adabiyotshunoslik terminotizimlari qiyosiy yo‘sinda tahlil qilinib, ularning morfologik, sintaktik va semantik farqlari aniqlashtirildi. Ingliz terminlari qisqa, analitik, erkin birikuvchan va kontekstga moslashuvchanligi bilan ajralib tursa, fransuz terminlari ko‘p komponentli, derivatsion, qat’iy grammatik me’yorlarga asoslangan hamda semantik aniqlikka moyil birliklar sifatida tavsiflandi. Fransuz terminologiyasidagi me’yorlashuv davlat til siyosati va “Commission générale de terminologie et de néologie” faoliyati bilan bog‘liq holda izohlandi. Bu farqlar tilshunos olim M.T.Kabrening konseptual yondashuvi, shuningdek, ingliz va fransuz tili terminlarining analitik hamda sintetik xususiyatlarini yorituvchi nazariy qarashlar bilan izchil bog‘landi.

Terminlarning kognitiv tabiati R.Temmermanga ko‘ra [25] klassik terminologiyaning qat’iy va normativ chegaralarini tanqid qilib, terminlarni prototipik tuzilishga ega, dinamik va kontekstga bog‘liq kategoriyalar sifatida talqin qiladi. K.Kageura terminlarning shakllanishi va rivojlanishini bilim strukturalari, ehtimollik va konseptual qonuniyatlar bilan bog‘laydi[26]. P.Faberning “Frame-Based Terminology” nazariyasida terminlar muayyan bilim sohasi ichidagi kognitiv freymlar va konseptual tarmoqlar tarkibida ifodalanishi[27], terminlarning inson tafakkuridagi kategoriyalash, bilimni strukturallashtirish va ma’noni tizimlashtirish jarayonlari bilan bevosita aloqadorligini ko‘rsatadi.

Adabiyotshunoslik terminologiyasi ham struktural, semiotik, narratologik va tarixiy-evolyutsion yondashuvlar asosida yoritildi. R.Yakobson poetik funksiya, ekspressivlik, paradigmatik va sintagmatik munosabatlar orqali adabiy tilni tahlil qilishga asos yaratgan bo‘lsa[28], Y.Lotman adabiy matnni semiotik tizim sifatida talqin qilib, “semiosfera”, “madaniy kod”, “matnlararo aloqa” kabi tushunchalar vositasida

---

[19] Bruno de Bessé. La définition terminologique. – Paris:1990. – P.253.
[20] Rondeau Guy. Introduction à la terminologie. Boucherville, – Québec:1981. – P.62–63.
[21] О.С.Ахманова. Словарь лингвистических терминов. – М.:1966. – С.608.
[22] Винокур Г. О. Культура языка. – Москва: Лабиринт, 2006. – 253 с.
[23] А.С.Герд. Значение термина и научное знание // Научно-техническая информация.– М.:1991. – С.1–4.
[24] Гак В. Г. Сопоставительная лексикология: на материале французского и русского языков. — Москва: Международные отношения, 1977. – С. 264.
[25] Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2000. – P.258.
[26] Kageura K. The Dynamics of Terminology: A Descriptive Theory of Term Formation and Terminological Growth. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2002. – P.322.
[27] Faber P. A Cognitive Linguistics View of Terminology and Specialized Language. – Berlin; Boston: De Gruyter Mouton, 2012. – P.337 .
[28] Bradford R. Roman Jakobson: Life, Language, Art. – London; New York: Routledge, 1994. – 213 p.

Сканировано с CamScanner

terminlarning madaniy belgilar tizimidagi o‘rnini ochib beradi[29]. T.Todorov janr, diskurs, hikoya va matn darajalari orqali adabiyotshunoslik terminlarini narratologik jihatdan[30], G.A.Gukovskiy realizm, romantizm, klassitsizm kabi terminlarni adabiy maktablar taraqqiyoti bilan bog‘liq holda o‘rganadi[31]. Bu yondashuvlar adabiyotshunoslik terminlarining faqat nazariy belgi emas, balki adabiy jarayon, poetika va madaniy tafakkurni anglash vositasi ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbek tili terminologiyasi doirasida A.A.Abduazizov, I.Mirzayev, M.E.Umarxo‘jayev, H.Dadaboyev, R.Rasulov, D.I.Xodjayeva, D.Quronov va O.S.Ahmedov[32] qarashlari orqali terminlarning milliy moslashuvi, semantik aniqligi, tarjimadagi muvofiqligi, lingvokulturologik xususiyati va kommunikativ samaradorligi yoritildi.

Ingliz va fransuz tili tilshunoslik terminlarining shakllanishi tarixiy, madaniy, ijtimoiy va siyosiy omillar bilan bog‘liq holda yoritilgan. Ingliz tili terminologiyasi qadimgi german ildizlari, lotin, fransuz va skandinav tillari ta’siri asosida bosqichma-bosqich rivojlangan; qadimgi ingliz tili davrida diniy va agrar birliklar, o‘rta ingliz tili davrida Norman istilosi ta’siridagi huquqiy-siyosiy terminlar, keyingi davrlarda lotin-yunon manbali terminlar faol shakllana borganligi ma’lum bo‘ldi.

Ingliz tilida matbaachilik, lug‘atchilik, fonetik o‘zgarishlar va globallashuv terminologik tizimning kengayishiga ta’sir ko‘rsatgan. U.Kakston matbaasi, R.Kovdreyning “Table Alphabeticall”, S.Jonsonning “A Dictionary of the English Language” kabi manbalar orqali terminlarning yozma me’yorlashuviga xizmat qilingan. XX-XXI asrlarda strukturalizm, transformatsion grammatika, raqamli texnologiyalar va internet madaniyati ta’sirida *“syntax”, “semantics”, “deep structure”, “AI”, “cyberspace”* kabi yangi terminlar ingliz tilining global terminotizimidagi mavqeyini mustahkamlagan.

Fransuz tilshunoslik terminologiyasi lotin-yunon asoslari, davlat til siyosati va institutsional me’yorlashtirish bilan bog‘liq holda shakllangan. “Villiers-Cotterêts” farmoni, “Académie Française” hamda “Commission Générale de Terminologie et de Néologie” faoliyati fransuz tili terminlarining rasmiylashuvi va tartibga solinishida muhim o‘rin tutgan. Qiyosiy jihatdan ingliz tili terminlari ixcham, analitik va kontekstga moslashuvchan bo‘lsa, fransuz tili terminlari murakkab, ko‘p komponentli va semantik aniqlikka moyil birliklar sifatida shakllangan.

Ingliz va fransuz adabiyotshunoslik terminlarining tarixiy genezisi ularning adabiy jarayon, janr, uslub, poetik struktura va estetik kategoriyalarni ifodalovchi

---

[29] Y.M. Lotman. Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture. – London:1990. – P.123–165.

[30] T.Todorov. The Fantastic: A Structural Approach to a Literary Genre. –Ithaca, NY: 1975. – P.3–20, 82–105.

[31] Гуковский Г. А. Пушкин и русские романтики. – М.: Художественная литература, 1965. – 355 с.

[32] Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish: Oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakulteti talabalari uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2010. –176 B..; Мирзаев И., Боқаев М. Ўзбек тили: дарслик. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. – 240 б..; М.Э.Умархўжаев. Принципы составления многоязычного фразеологического словаря: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук – М., 1972. – 25 с.; Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 186 с.; Расулов Р. Умумий тилшунослик: дарслик . – Тошкент: Фан ва технология, 2010. – 323 б.; Ходжаева Д.И. Тилшунослик терминларининг лексикографик таҳлили (инглиз, рус ва ўзбек тиллари изоҳли луғатлари мисолида): Фалсафа доктори. ... дисс. автореф. – Т., 2018. – 53 б.; Ahmedov O.S. Ingliz tili iqtisodiyot terminologiyasida somatik va zoonomik komponentli terminlarning tarjimadagi leksik-semantik xususiyatlari. O‘zbekistonda xorijiy tillar. – 2018. – № 4 (23). – B. 135–142.

Сканировано с CamScanner

maxsus lisoniy birlik sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Ingliz adabiyotshunoslik terminlari qadimgi german va anglo-sakson qatlamlari, o‘rta ingliz tili davridagi norman-fransuz ta’siri hamda Renessans bosqichida yunon-lotin manbalaridan kirib kelgan birliklar asosida rivojlangan. *"Romance", "chivalry", "courtly love", "drama", "epic", "poetry", "hero"*[33] kabi terminlar dastlab tarixiy-madaniy muhit bilan bog‘liq holda yuzaga kelib, keyinchalik janr, obraz, estetik ideal va badiiy diskursni ifodalovchi tushunchalarga aylangan.

Ingliz adabiyotshunoslik terminologiyasining keyingi taraqqiyoti romantizm, realizm, naturalizm, gotika, modernizm va postmodernizm kabi adabiy-estetik oqimlar bilan bog‘liq holda kengaygan. Bu jarayonda *"satire", "novel", "realism", "romanticism", "stream of consciousness", "modernism", "postmodernism", "digital literature", "hypertext fiction"*[34] kabi terminlar adabiy tafakkurdagi ijtimoiy, psixologik, estetik va texnologik o‘zgarishlarni ifodalagan. Fransuz adabiyotshunoslik terminlari, asosan, lotin va yunon manbalari, o‘rta asr diniy-feodal madaniyati, Renessans, klassitsizm, modernizm, postmodernizm hamda raqamli adabiyot ta’sirida shakllangan; *"poésie", "tragédie", "comédie", "épopée", "chevalerie", "féodalité", "humanisme", "classicism", "existentialisme", "surréalisme", "littérature numérique", "hypertexte"*[35] kabi birliklar fransuz adabiy tafakkurining tarixiy va konseptual rivojini o‘zida aks ettiradi.

Qiyosiy tahlil ingliz va fransuz adabiyotshunoslik terminotizimlari umumiy antik, o‘rta asr va zamonaviy manbalardan oziqlangan bo‘lsa-da, ularning shakllanish tamoyillari differensialligini ko‘rsatadi. Ingliz tili terminlari anglo-sakson, norman-fransuz, renessans va globalizm bosqichlarida shakllanib, analitik tuzilish, ko‘pma’nolilik va diskursiv moslashuvchanlikka moyilligi bilan ajralib turadi. Fransuz tili terminlari grammatik qat’iylik, konseptual aniqlik, estetik me’yorlashuv va normativ tizimlilik asosida rivojlangan bo‘lib, har ikki terminotizim adabiy tafakkur, madaniy kontekst va poetik kategoriyalarni izohlashda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Dissertatsiyaning *"Terminlar tizimining struktur-semantik va kognitiv talqini"* deb nomlangan ikkinchi bobida lingvistik va adabiyotshunoslik terminlarining funksional-ma’noviy jihatlari, struktur-semantik xususiyatlari hamda kognitiv talqini ko‘rilib, lingvistik va adabiyotshunoslik terminlarining ilmiy axborotni ifodalashdagi vazifasi, ma’no aniqligini ta’minlashdagi o‘rni hamda ayrim hollarda konnotativ mazmunni yuzaga chiqarish xususiyatlari tavsiflandi. Mazkur yondoshuv asosida, ingliz va fransuz tillarida til va adabiyotga oid terminlarning funksional-semantik xususiyatlari, qiyosiy tuzilishi va mazmuniy jihatlari ochiqlandi.

Lingvistik va adabiyotshunoslik terminlari ilmiy tushunchalarni nomlash, ularni tizimlashtirish va ilmiy muloqotda aniq ifodalashga xizmat qiluvchi funksional-semantik birliklar sifatida talqin qilindi. Lingvistik terminlar fonetika, morfologiya, sintaksis va semantika kabi sohalarda aniq, monosemantik va tizimli tushunchalarni ifodalasa, adabiyotshunoslik terminlari janr, uslub, poetik vosita,

---

[33] Gelderen E. van. A History of the English Language. – Amsterdam: John Benjamins Publishing, 2006. – P. 334.
[34] McArthur T. The Oxford Companion to the English Language. – Oxford: Oxford University Press, 1992. – P. 441–447.
[35] Wright R. Latin and the Romance Languages in the Early Middle Ages. – University Park, PA: Pennsylvania State University Press, 1996. – 299 p.

Сканировано с CamScanner

estetik va madaniy kategoriyalarni ko‘p qatlamli, konnotativ hamda kontekstga bog‘liq holda yoritilishi oydinlashdi. Shu jihatdan, *"phoneme"*, *"morpheme"*, *"syntax"* kabi terminlar ilmiy aniqlik va tizimlilikni ta’minlasa, *"metaphor"*, *"symbol"*, *"irony"*, *"narrative"* kabi terminlar badiiy matnning estetik, diskursiv va madaniy ma’nolarini ochishga xizmat qiladi.

Terminlarning semantik aniqligi, funksional chegarasi va ilmiy izchilligi L.Blumfild, D.Kristal, F.de Sossyur, N.Chomskiy va T.Todorov qarashlariga tayanildi[36]. L.Blumfild terminlarning aniq va yagona ma’noga ega bo‘lishi lingvistik tahlilda tizimlilikni ta’minlashini ta’kidlagan bo‘lsa, D.Kristal terminlarning shaklan sodda va tushunarli bo‘lishi zarurligini ilgari suradi. F.de Sossyur terminologiyani til tizimidagi barqarorlikni saqlovchi belgi sifatida ko‘radi, N.Chomskiy terminlarning yagona ma’noda qo‘llanishi ularni turli tillar tizimida qiyosiy tahlil qilish imkonini berishini asoslaydi. T.Todorov terminlarning semantik jihatdan aniq chegaralanishini ilmiy tahlilning muhim sharti sifatida baholaydi. Ushbu qarashlar terminologiyaning ilmiy muloqotda aniqlik, normativlik va konseptual izchillikni ta’minlovchi vosita ekanini ko‘rsatadi.

Adabiyotshunoslik terminlarining funksional-semantik tabiati M.Baxtin hamda o‘zbek olimlari E.Xudoyberdiyev, D.O‘rayeva, D.Quvvatova, J.Eltazarov va M.Yo‘ldoshev [37] qarashlari bilan bog‘liq holda umumlashtirildi. M.Baxtin terminlarning badiiy matndagi janr, diskurs va ideologik qatlamlarni aniqlashdagi vazifasini ko‘rsatgan bo‘lsa, E.Xudoyberdiyev adabiy terminlarning muayyan poetik va janr tushunchani ifodalashini tadqiq etadi. D.O‘rayeva va D.Quvvatova adabiyotshunoslik terminlarining xalqaro semantik moslashuvchanligini, J.Eltazarov ularning ixchamligi va muloqotdagi funksional samaradorligini, M.Yo‘ldoshev terminlarning badiiy matn strukturasi, estetik niyat va poetik kommunikatsiyani talqin qilishdagi rolini asoslaydi.

Ingliz va fransuz tillaridagi tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik terminlari umumiy yunon-lotin ilmiy manbalariga tayansa-da, har bir tilning ilmiy tafakkuri, nazariy an’analari va madaniy tajribasi ta’sirida turlicha shakllangani namoyon bo‘ladi. Fransuz terminologiyasida *"langue/parole"*, *"discours"*, *"focalisation"*, *"niveaux de narration"*[38] kabi birliklar struktural, konseptual va tizimli yondashuvni ifodalasa, ingliz terminologiyasida *"language/speech"*, *"deep structure/surface structure"*, *"narrative"*, *"discourse"* [39] kabi terminlar ko‘proq analitik, amaliy, kognitiv va transformatsion tahlilga xizmat qiladi. Shu kabi misollar asosida fransuz

---

[36] Bloomfield L. Language. – Chicago: University of Chicago Press, 1984. – 564 p.; Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. 6th ed. – Malden, MA: Blackwell Publishing, 2008. – 560 p.; Saussure F. de. Course in General Linguistics. – London. Duckworth, 1983. – P.236.; N.Chomsky. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: 1965. – P.24., T.Todorov. Theories of the Symbol. – Ithaca, NY: 1981. – P.40.

[37] Bakhtin M. Rabelais and His World / trans. by H. Iswolsky. – Bloomington: Indiana University Press, 1984. – P.4-20.; E.Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent: 2007. – B. 41.; D.O‘rayeva, D. Quvvatova. Jahon adabiyoti terminlarining izohli lug‘ati. – Buxoro: 2019. – B. 180.; Элтазаров Ж. Д. Тилдаги тежамлилик тамойили ва кискарув: Монография. – Самарканд: СамДУ, 2004. – 110 бет.; Yo‘ldoshev M., Isoqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili: metodik qo‘llanma – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – B. 47-53.

[38] Saussure F. de. Course in General Linguistics / transl. by Wade Baskin; ed. by Haun Saussy, Perry Meisel. – New York: Columbia University Press, 2011. – 260 p.

[39] N.Chomsky. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: 1965. – P.15-30.

Сканировано с CamScanner

tilida terminlar nazariy aniqlik va tushunchaviy chegaralanganlikka, ingliz tilida funksional qo‘llanilish va moslashuvchanlikka moyil ekani namoyon bo‘ldi.

Terminlarning semantik-funksional xususiyatlari poetik, stilistik va matnshunoslik birliklari orqali qiyosiy tahlil qilingan. *“Epic/épopée”*, *“metaphor/métaphore”*, *“irony/ironie”*, *“narrative voice/voix narrative”*, *“satire/satire”*, *“allegory/allégorie”* [40] kabi terminlar bir xil antik yoki umumyevropa ildizlariga ega bo‘lsa-da, ularning har bir tildagi ma’no yuklamasi va madaniy talqini farqlanishi ko‘rsatilgan. Masalan, ingliz terminlari ko‘proq individual tafakkur, ijtimoiy tanqid, amaliy matn tahlili va pragmatik ifodaga yaqin bo‘lsa, fransuz terminlari estetik izchillik, ijtimoiy-falsafiy talqin, struktural tahlil va semantik aniqlik bilan bog‘liq holda ifodalanadi.

Terminologik almashinuv ikki til o‘rtasidagi ilmiy-madaniy ta’sirning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida yoritilgan. Fransuz tilidan ingliz tiliga *“genre”*, *“critique”*, *“déconstruction”*, *“avant-garde”*[41] kabi adabiy-falsafiy terminlar o‘tgan bo‘lsa, ingliz tilidan fransuz tiliga *“computer linguistics”*, *“machine learning”*, *“big data”*[42] kabi texnologik terminlar kirib kelgan. Bu jarayon qabul qilish, moslashuv va integratsiya bosqichlari orqali tushuntirilib, terminlarning fonetik, morfologik va semantik jihatdan moslashishi hamda xalqaro ilmiy diskursda barqaror birlikka aylanish jarayonlari oydinlashdi.

Tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminologiyasi tarixiy tajriba, madaniy xotira, milliy tafakkur va estetik qarashlar bilan bog‘liq holda shakllangan tizim sifatida talqin etiladi. Terminlar ilmiy tushunchalarni nomlash bilan birga, jamiyatning ijtimoiy qadriyatlari, madaniy me’yorlari va tafakkur tarzini ham aks ettiradi. Ingliz terminologiyasi german-rim madaniyati, xristianlik, Protestant etikasi va liberal-demokratik qadriyatlar ta’sirida ko‘p qatlamli hamda moslashuvchan xususiyat kasb etgan bo‘lsa, fransuz terminologiyasi yunon-rim merosi, katolik axloqi, ratsionalizm, respublikachilik g‘oyalari va normativ an’analar asosida izchil va me’yoriy tizim sifatida shakllangan. Norman bosqini, Renessans, Protestant reformatsiyasi, Fransuz klassitsizmi, Ma’rifat davri va Fransuz inqilobi ushbu terminologik tizimlarning shakllanishida muhim tarixiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi[43].

Ingliz va fransuz terminologiyasidagi farqlar terminlarning semantik-pragmatik qo‘llanishida aniq ko‘rinadi. Ingliz adabiy tafakkurida *“liberty”*, *“self-reliance”*, *“common sense”*, *“tragedy”*, *“romance”*[44] kabi birliklar shaxsiy tajriba, individual mas’uliyat va ichki kechinmalar bilan bog‘liqligi aniqlandi. Fransuz adabiy tafakkurida *“raison”*, *“ordre”*, *“universalité”*, *“classicisme”*, *“vraisemblance”*, *“liberté”*, *“égalité”*[45] kabi terminlar ratsionalizm, ijtimoiy tartib

---

[40] J.A.Cuddon. The Penguin Dictionary of Literary Terms and Literary Theory. – London:1999. – P.511-515.
[41] C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – Oxford: 2001.– P.22-23.
[42] M.Görlach. Lexical Influence of French on Middle English.– Amsterdam: 2002. – P.68-70.
[43] Anderson B. Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. – London ; – New York : Verso, 1991. – P. 11-16
[44] Foucault M. L’ordre du discours: Leçon inaugurale au Collège de France prononcée le 2 décembre 1970. – Paris. Gallimard, 1971. – 81 p.
[45] Commission d’enrichissement de la langue française. Vocabulaire de la culture et de la communication. – Paris : Journal officiel de la République française, 2019. – P. 14.

Сканировано с CamScanner

va umumiy qadriyatlar bilan izchil bog‘langanligi namoyon bo‘ldi. Globalizatsiya va raqamli texnologiyalar davrida ingliz tilidagi *"multiculturalism"*, *"digital storytelling"*, *"cyberpoetry"* hamda fransuz tilidagi *"métissage culturel"*, *"mondialisation"*, *"poésie numérique"*, *"narration numérique"*[46] kabi terminlar yangi madaniy va texnologik jarayonlarni ifodalab, har ikki terminologik tizimning zamonaviy sharoitda semantik jihatdan kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning *"Ingliz va fransuz lingvoadabiyotshunoslik terminlarining derivatsion tizimi va mavzuiy tasnifi"* deb nomlangan *uchinchi bob*ida ingliz va fransuz tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik terminlarining etimologik manbalari, derivatsion tuzilishi, mavzuiy guruhlanishi va funksional voqelanishi tahlil qilindi. Bobda terminlarning affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya va semantik ixtisoslashuv orqali shakllanishi, ularning lingvistik va adabiyotshunoslik yo‘nalishlari bo‘yicha tasniflanishi hamda tarjimada semantik moslashuvi yoritildi. Ingliz terminologiyasiga xos ixchamlik va funksional moslashuvchanlik, fransuz terminologiyasiga xos normativlik, morfologik aniqlik va konseptual izchillik qiyosiy asosda umumlashtirildi.

Ingliz terminologiyasi lotin, qadimgi yunon, german va fransuz tillari ta’sirida shakllangan, *"syntax"*, *"lexicon"*, *"poetics"*, *"genre"*, *"liberty"*, *"discourse"* kabi birliklar turli til qatlamlarida namoyon bo‘ldi[47]. Norman istilosidan keyingi fransuzcha o‘zlashmalar ingliz tilida rasmiy, madaniy va adabiy terminlarning kengayishiga xizmat qilgan; *"genre/type"*, *"liberty/freedom"*, *"commence/begin"* kabi sinonimik juftliklar uslubiy tafovutlarni yuzaga keltirgan[48]. O‘zlashgan terminlar ingliz tilining ichki tizimiga fonetik qisqarish, affiksal o‘zgarish, semantik torayish va ixtisoslashuv orqali moslashgan; *"critique → critic"*, *"poetica → poetic/poetry"*, *"discours → discourse"*, *"logos → logic"* kabi misollar ushbu assimilatsiya jarayonini ko‘rsatadi. Shuningdek, affiksatsiya, kompozitsiya va konversiya orqali terminlar hosil bo‘lib, ingliz terminologiyasining derivatsion moslashuvchanligi va funksional aniqligi namoyon bo‘ldi.

Fransuz lingvoadabiyotshunoslik terminologiyasi, asosan, lotin va qadimgi yunon manbalariga tayangan holda shakllanganligi *"poétique"*, *"syntaxique"*, *"lexème"*, *"rhétorique"*, *"sémantique"*, *"discours"*, *"conjugaison"*, *"substantif"* kabi birliklarda fonetik, morfologik va semantik moslashuv kuzatildi. Klassik davrda *"grammaire"*, *"rhétorique"*, *"style"*, *"versification"* kabi terminlar normativ grammatika, ritorika va adabiy me’yor bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy davrda *"intertextualité"*, *"déconstruction"*, *"narrativité"*, *"discours"*, *"sémiotique"* kabi terminlar nazariy maktablar, diskursiv tahlil va metaforik talqinlar bilan bog‘liq holda shakllangan[49]. Qiyosiy jihatdan, ingliz tili sintaktik soddalik, derivatsion faollik va funksional moslashuvchanlikka moyilligi, fransuz tili flektiv tuzilma, murakkab morfologik modellar va uslubiy aniqlik bilan ajralib turishi ma’lum bo‘ldi.

---

[46] Bhabha H.K. The Location of Culture. – London: Routledge, 2004. – P.125–148.
[47] Nida E.A. Toward a Science of Translating. – Leiden:1964. – P.120 –125.
[48] Görlach M. Lexical Influence of French on Middle English.– Amsterdam: 2002. – P.68–70.
[49] Kristeva J. Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art. – New York: Columbia University Press, 1980. – P. 368.

Сканировано с CamScanner

Ingliz va fransuz lingvoadabiyotshunoslik terminlari mazmuniga ko'ra yo'nalishi, funksional vazifasi va qo'llanish sohasi asosida mavzuiy guruhlarga ajratilib, fonetika, morfologiya, sintaksis, semantika, diskurs tahlili, janr nazariyasi, poetika va narratologiya kabi yo'nalishlar doirasida tizimlashtirildi [50]. Bunda affiksatsiya, kompozitsiya va konversiya terminlarni tasniflashning asosiy mezoni sifatida emas, balki ularning mavzuiy va konseptual guruhlanishini aniqlashtiruvchi yordamchi strukturaviy omil sifatida qaraladi.

Ingliz terminologiyasida mavzuiy guruhlar ko'proq funksional-pragmatik yo'nalish, ixcham sintaktik tuzilma va faol konversiya asosida shakllansa, fransuz terminologiyasida tizimlilik, normativlik, predlogli-analitik konstruksiyalar, morfologik aniqlik va konseptual chegaralanganlik ustuvorlik qiladi. Masalan, *"speech act/acte de parole", "word formation/formation des mots", "narrative structure/structure narrative", "free indirect style/style indirect libre"* kabi parallel birliklar ingliz tilida qisqa va sintetik, fransuz tilida analitik, predlogli yoki sifatlovchi birlik orqali ifodalanishi o'rganildi.

Terminlarning strukturaviy guruhlanishi ularning semantik, uslubiy, diskursiv va kognitiv xususiyatlari bilan bog'liq holda ifodalanib, ingliz tilida konversiya asosidagi birliklar morfologik tejamkorlik va pragmatik moslashuvchanlikni namoyon qilsa, fransuz tilida bunday ma'nolar ko'pincha affiksatsiya, nominalizatsiya yoki leksik-parafrazalar orqali berilishi, korpus kuzatuvlari ingliz terminlarining global akademik diskursda nisbatan yuqori chastotada qo'llanishini, fransuz terminlarining ko'proq ixtisoslashgan va normativ ilmiy muhitda faol ishlatilishini ko'rsatadi.

"Narrative voice/voix narrative", "intertextualité/intertextuality", "narratologie/narratology", "identité narrative/narrative identity" kabi terminlar formal jihatdan yaqin bo'lsa-da, tarjima va talqinda semantik siljish, uslubiy farq hamda kognitiv-konseptual tafovutlarni yuzaga chiqaradi, shu sababli ularni faqat ekvivalent birlik sifatida emas, balki muayyan ilmiy maktab, diskurs va madaniy tafakkur bilan bog'liq terminologik birlik sifatida o'rganish zarurligi oydinlashadi.

Terminlarning tarjimadagi voqelanishi bevosita leksik moslik bilan cheklanmaydi. *"Modernism, modernité", "agency, agentivité", "performance, rendement, interprétation", "field, champ/domaine"* kabi birliklar kontekstga qarab turlicha semantik yuklama kasb etadi[51]. Shu sababli termin tarjimasida dinamik va funksional ekvivalentlik, modulyatsiya, adaptatsiya, transpozitsiya, deskriptiv tarjima va kontekstual moslashtirish muhim ahamiyatga ega sanaladi. Noekvivalent terminlar bilan ishlashda tarjimon faqat til birliklarini almashtirmaydi, balki termin ortidagi ilmiy tushuncha, madaniy kontekst va diskursiv vazifani ham qayta ifodalaydi. Bu ingliz va fransuz terminologiyasini til tizimi, ilmiy tafakkur, madaniy qadriyat va tarjimaviy talqin o'zaro tutashgan murakkab hodisa sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning *"Ingliz va fransuz lug'atlarida tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlarining leksik-semantik xususiyatlari"* deb nomlangan to'rtinchi bobi ingliz

[50] Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. 6th ed. – Malden, MA: Blackwell Publishing, 2008. – 560 p.
[51] Berman M. All That Is Solid Melts into Air: The Experience of Modernity. – London: 1982. – P. 89 –131.

Сканировано с CamScanner

va fransuz tili izohli lug'atlarida lingvoadabiyotshunoslik terminlarining lug'aviy ifodalanishi, semantik-definitsion xususiyatlari, semasiologik tavsifi, konseptual talqini hamda sinonimik-paradigmatik munosabatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Shunga ko'ra Kris Boldikning *"The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms"* lug'atida adabiyotshunoslik terminlarining semasiologik tavsifi, *"Dictionnaire des littératures de langue française"* lug'atida fransuz adabiyotshunoslik terminlarining semantik-tavsifiy xususiyatlari, *"Petit Larousse Illustré 2020"* tasvirli lug'atida tilshunoslik terminlarining leksik va konseptual tahlili, shuningdek, *"Le Grand Robert de la Langue Française"* izohli lug'atida tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlarining sinonimik paradigmatik yoritilishi izchil o'rganildi.

Kris Boldikning *"The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms"* [52] lug'atiga bag'ishlangan faslda zamonaviy adabiyotshunoslik va lingvoadabiyotshunoslik terminologiyasining leksik-semantik, semasiologik va konseptual xususiyatlari tahlil qilindi. Lug'at adabiy-nazariy tushunchalarni ixcham, tizimli va ilmiy asosda izohlovchi manba sifatida baholanib, undagi terminlarning semantik ko'lami, tarixiy-etimologik manbalari, morfologik tuzilishi, sintaktik realizatsiyasi, ekvivalentlik va adekvatlik darajasi, madaniy konnotatsiyasi, uslubiy registri hamda sinonimik bog'lanishlari aniqlashtirildi. Tadqiqotda lug'atdagi 900 dan ortiq birlik ichidan 150 ta termin tanlab olinib, ular 5 ta semantik-konseptual guruh doirasida o'rganildi; lotin, qadimgi yunon, fransuz va nemis tillaridan o'zlashgan terminlarning zamonaviy adabiyotshunoslik diskursidagi funksional o'rni ko'rsatildi. Xususan, *"stream of consciousness"*, *"sonnet"*, *"trilogy"*, *"tragedy"*, *"lacuna"*, *"exposition"*, *"leitmotif"*, *"literal"*, *"langue"*, *"ubi sunt"*, *"ut pictura poesis"* kabi birliklar adabiy shakl, janr, poetik tamoyil, matnshunoslik hodisasi va nazariy-estetik konsept sifatida semasiologik jihatdan tavsiflandi.

Shuningdek, fransuz tilidan o'zlashgan adabiy-estetik terminlar ham alohida semantik guruhlar asosida yoritilib, *"différance"*, *"discours"*, *"écriture"*, *"langue"*, *"histoire"*, *"lisible"* kabi nazariy birliklar poststrukturalizm, semiotika va narratologiya bilan bog'liq konseptual maydonni ifodalashi; *"avant-garde"*, *"belles-lettres"*, *"drame"*, *"récit"* kabi terminlar janr va matn tuzilishini belgilashi; *"cheville"*, *"claque"*, *"longueur"* kabi birliklar uslubiy-texnik xususiyatlarni, *"courtly love"*, *"jouissance"*, *"vraisemblance"* terminlari tematik, emotsional va estetik qatlamlarni ifodalashi ko'rsatildi. Shuningdek, *"oeuvre"* va *"philosophes"* terminlari mualliflik merosi, ma'rifatparvarlik tafakkuri va tarixiy-intellektual jarayonlar bilan bog'liq holda talqin qilindi. Bu jihatlar fransuzcha o'zlashmalarning ingliz adabiy terminologiyasida faqat leksik birlik sifatida emas, balki madaniy-estetik va gnoseologik mazmun tashuvchi konseptual vosita sifatida faol ishlashini asoslaydi.

Lug'atda uchraydigan tilshunoslik terminlari ham adabiyotshunoslik terminlari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinib, *"phoneme"*, *"morpheme"*, *"onomatopoeia"* fonetik-morfologik sathni, *"syntax"* va *"speech act"* sintaktik-kommunikativ munosabatlarni, *"semantics"*, *"pragmatics"*, *"lexis"* semantik-

[52] Baldick C. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – 4th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2021. – P.416.

Сканировано с CamScanner

pragmatik tizimni, *"stylistics"*, *"neologism"*, *"narrative"*, *"intertextuality"*, *"homonym"* diskursiv-matnshunoslik, kognitiv-konseptual va stilistik-estetik yondashuvlarni ifodalovchi birliklar sifatida baholandi. Mazkur tahlil terminlarning oddiy izohli birliklar doirasida cheklanmasdan, adabiy va lingvistik tafakkur, matn talqini, nazariy maktablar hamda madaniy-kognitiv jarayonlarni ifodalovchi konseptual vositalar sifatida voqelanishini ko'rsatadi.

Jan-Pyer de Bomarchais, Daniel Kuti va Alen Rey muharrirligida tayyorlangan *"Dictionnaire des littératures de langue française"*[53] lug'ati fransuz adabiyotshunoslik terminlarini tarixiy, semantik, stilistik va madaniy-estetik jihatdan izohlovchi muhim leksikografik manba sifatida tahlil qilindi. Unda fransuz adabiy tilining tarixiy evolyutsiyasi, adabiy norma va uslubiy ifoda shakllarining rivoji, shuningdek, *"littérature"* tushunchasining yozuv, kitobiy bilim, estetik ong va madaniy identifikatsiya bilan bog'liq semantik taraqqiyoti yoritildi. *"Littérarité"* kategoriyasi matnning adabiylik darajasini belgilovchi stilistik, semantik, ekspressiv va psixologik belgilar majmui sifatida talqin etilib, adabiyotning faqat matnlar yig'indisi emas, balki madaniy kod, estetik xabar, kommunikativ funksiya va ijtimoiy muomala bilan bog'liq murakkab hodisa ekanligi ko'rsatildi.

Tahlilda lug'atdagi 700 dan ortiq termin ichidan 7 ta tayanch termin tanlab olinib, ular 3 ta asosiy guruh doirasida o'rganildi. *"Métaphore"*, *"métonymie"* va *"allégorie"* kabi uslubiy figuralar fransuz adabiy matnida obrazlilik, semantik ko'chish, kontekstual yaqinlik, ramziy ifoda va sotsiomadaniy ma'no hosil qiluvchi vositalar sifatida tavsiflandi. Metafora bir ma'noning boshqa tushunchaga ko'chishi orqali poetik va ijtimoiy konnotatsiyani yuzaga keltirishi, metonimiya real yaqinlik, sabab-oqibat, qism-butun munosabatlariga tayanishi, allegoriya esa konkret obrazlar orqali mavhum g'oyalarni ifodalashi bilan namoyon bo'ldi.

"Genres littéraires" doirasida *"narration"*, *"comédie"* va *"drame"* terminlarining tarixiy shakllanishi, janr va funksional xususiyatlari va matn tuzilishidagi o'rni umumlashtirildi. *"Narration"* voqealarni bayon etuvchi diskursiv jarayon, *"comédie"* ijtimoiy munosabatlar va axloqiy me'yorlarni kulgi orqali yorituvchi dramatik shakl, *"drame"* tragediya va komediya oralig'ida shakllangan, ijtimoiy-axloqiy ziddiyatlarni sahna harakati orqali ifodalovchi janr sifatida talqin qilindi. Shu asosda fransuz adabiyotshunoslik terminlari oddiy lug'aviy birlik emas, balki madaniy tajriba, estetik idrok, ijtimoiy munosabat, matn talqini va kognitiv interpretatsiyani ifodalovchi konseptual strukturalar sifatida o'rganildi.

"Petit Larousse Illustré 2020" tasvirli lug'atidagi tilshunoslik terminlarining leksik va konseptual tahliliga bag'ishlangan faslda mazkur lug'at fransuz tilshunoslik terminologiyasini izohlovchi muhim leksikografik manba sifatida talqin qilindi[54]. Statistik tahlil natijalariga ko'ra, "Petit Larousse Illustré 2020" lug'atidagi jami 1350 ta lingvistik termin to'rtta asosiy guruhga fonetik-fonologik yo'nalishda 300 ta, morfologik yo'nalishda 400 ta, sintaktik yo'nalishda 250 dan ortiq, semantik va leksik-nazariy yo'nalishda 400 ga yaqin termin ichidan ajratib tahlilga tortildi.

---

[53] Dictionnaire des littératures de langue française / sous la direction de J.-P. de Beaumarchais, D. Couty, A. Rey. – Paris: Bordas, 1984. – 3 vol. – P.2664.

[54] Le Petit Larousse illustré 2020: dictionnaire encyclopédique. – Paris: Larousse, 2019. – P.2048.

Сканировано с CamScanner

Lug‘atdagi terminlar leksik ma’nosi, etimologik manbasi, semantik yuklamasi, paradigmatik aloqalari va funksional qo‘llanishi nuqtayi nazaridan o‘rganilib, ularning fransuz tilining ichki tizimini aks ettirishdagi o‘rni aniqlanadi. Faslda *“phonétique”*, *“phonologie”*, *“phonème”*, *“allophone”*, *“prosodie”*, *“intonation”*, *“accent”* kabi fonetik-fonologik birliklar tovush tizimi, ma’no farqlash, urg‘u va intonatsion xususiyatlarni ifodalovchi konseptual terminlar sifatida; *“morphologie”*, *“morphème”*, *“allomorphe”*, *“affixe”*, *“suffixe”*, *“préfixe”*, *“flexion”*, *“dérivation”*, *“composition”* kabi morfologik terminlar so‘z shakli, grammatik o‘zgarish, affiksatsiya, derivatsiya va kompozitsiya jarayonlarini tavsiflovchi birliklar sifatida tahlil qilindi.

Sintaktik yo‘nalishda *“syntaxe”*, *“phrase”*, *“mot”*, *“énoncé”*, *“discours”*, *“sujet”*, *“verbe”*, *“complément”*, *“préposition”*, *“conjonction”*, *“coordination”*, *“subordination”* kabi terminlar gap qurilishi, so‘zlararo grammatik munosabat, nutqiy izchillik va diskursiv bog‘lanishni ifodalovchi birliklar sifatida yoritildi. Semantik va leksik-nazariy qatlamda *“sémantique”*, *“lexique”*, *“lexicologie”*, *“lexicographie”*, *“polysémie”*, *“synonymie”*, *“antonymie”*, *“homonymie”*, *“néologisme”*, *“archaïsme”*, *“étymologie”* terminlari ma’no tizimi, leksik munosabatlar, ko‘pma’nolilik, sinonimiya, antonimiya, omonimiya, yangi va eskirgan birliklar hamda so‘zlarning tarixiy ildizini ochib beruvchi tushunchalar sifatida talqin etildi. Shuningdek, *“sociolinguistique”*, *“psycholinguistique”*, *“neurolinguistique”*, *“dialecte”*, *“idiolecte”*, *“diglossie”*, *“bilinguisme”* kabi terminlar tilning jamiyat, ong, individual nutq va ikki tillilik hodisalari bilan bog‘liq funksional-kognitiv jihatlari sifatida ifodalandi.

“Le Grand Robert de la Langue Française” [55] lug‘atida tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlari fransuz tilining sinonimik, etimologik, stilistik va semantik tizimini yorituvchi leksikografik manba sifatida tahlil qilinib, terminlar alohida lug‘aviy birlik sifatida emas, balki muayyan dominant termin atrofida shakllanuvchi sinonimik paradigma doirasida o‘rganildi. *“Langue”*, *“texte”*, *“mot”*, *“métaphore”*, *“poésie”* kabi markaziy birliklar semantik yaqinlik, stilistik registr, genealogik-etimologik manba, kognitiv yadro va diskursiv-funksional vazifasi asosida ko‘rildi. Shu jihatdan lug‘atdagi terminlar o‘zaro ma’nodosh bo‘lsa-da, ularning qo‘llanish sohasi, nutqiy maqomi va ilmiy, tavsifiy vazifasi bir-biridan farqlanishi ochiqlandi.

Tilshunoslikka oid paradigmalarda *“langue”*, *“dialecte”*, *“parler”*, *“idiome”* terminlari tilning umumiy ijtimoiy tizimi, hududiy shakli, jonli nutqiy ko‘rinishi va muayyan jamoaga xos ifoda vositasi sifatida talqin etildi. *“Texte”*, *“discours”*, *“parole”*, *“énoncé”* birliklari matn va nutq munosabatlarini ifodalab, yozma yaxlit, kontekstual nutq, individual nutqiy faoliyat va nutq akti natijasida yuzaga kelgan ifoda segmenti sifatida farqlandi. *“Mot”*, *“lexique”*, *“vocabulaire”*, *“terme”* terminlari leksik birlik, umumiy yoki individual so‘z boyligi, soha doirasidagi lug‘aviy qatlam hamda ilmiy tushunchani ifodalovchi terminologik birlik sifatida paradigmatik bog‘liqligi tahlil qilindi.

Adabiyotshunoslik terminlari doirasida *“métaphore”*, *“image”*, *“figure”*, *“comparaison”*, *“allégorie”*, *“métonymie”*, *“symbole”* birliklari obrazlilik,

---

[55] Le Grand Robert de la langue française: dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française: en 6 vol. / sous la direction d’A. Rey. – 2e éd. – Paris: Dictionnaires Le Robert, 2001. – 6 vol. – P. 13824.

Сканировано с CamScanner

ko'chma ma'no, o'xshatish, ramziy ifoda va stilistik figura munosabatlari asosida o'rganildi. *"Poésie"*, *"poème"*, *"vers"*, *"strophe"*, *"ode"* terminlari poetik jarayon, konkret she'riy matn, misra, band va janr, estetik shaklini bildiruvchi birliklar guruhida ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotning *"Ingliz va fransuz tillarida tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik terminlarining kognitiv-integrativ tahlili"* deb nomlangan *beshinchi bobi* Mishel Montenning "Les Essais" asari hamda ingliz-fransuz terminologik tizimlari asosida lingvistik va adabiyotshunoslik terminlarining kognitiv-semantik, stilistik, diskursiv va integrativ xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib *"Les Essais"* asaridagi fransuz adabiyotshunoslik terminlarining ifoda shakllari, estetik-poetik mazmuni, stilistik vazifasi va tarixiy-diskursiv kontekstdagi qo'llanishi yoritildi. Fransuz tilshunoslik terminlarining mushtarak va differensial belgilari, konseptual mazmuni hamda kontekstual voqelanish mexanizmlari aniqlashtirildi. Shuningdek, ingliz va fransuz terminologik tizimlarining kognitiv-semantik integratsiyasi va interferensiyasi qiyosiy tahlil qilinib, terminlarning semantik moslashuvi, konseptual uyg'unlashuvi, madaniy-kognitiv tafakkurdagi o'rni hamda universal va milliy xususiyatlari o'rganildi.

Mishel de Montenning *"Les Essais"* asarining shakllanishida qo'llanilgan adabiyotshunoslik terminlari fransuz esse janri, shaxsiy tajriba, refleksiya va falsafiy mushohada asosida shakllangan mualliflik diskursi sifatida tahlil qilinib,[56] unda faqatgina ilmiy tushunchani nomlovchi birlik emas, balki tarixiy-madaniy muhit, muallif tafakkuri, stilistik realizatsiya va kognitiv-semantik integratsiya bilan bog'liq ko'p qatlamli birliklar ekanligi aniqlandi. Xususan, *"essai"* termini Monten matnida janr nomidan kengroq ma'noda qo'llanib, sinov, tajriba, o'zini anglash, refleksiya va fikr yuritish jarayonini ifodalashi, *"coup d'essai"*, *"apprentissage"*, *"essais/expériences"*, *"se façonner sur autrui"* kabi shakllar uning semantik maydonini ko'rsatuvchi sinovdan to o'zlikni shakllantirishgacha kengaytirganligi oydinlashdi.

Asarda *"fable"*, *"fantaisie"* va *"proverb"* terminlari ham konseptual freym asosida turli semantik va stilistik vazifalarda namoyon bo'lib, aytaylik *"fable"* termini uydirma hikoya, obrazli tasvir, axloqiy-tarbiyaviy ma'no, falsafiy talqin va ijtimoiy bilimni ifodalashi, *"inventions et récits mensongers"* hamda *"mensonges profitables"* kabi birliklar orqali haqiqatni bilvosita anglash vositasiga aylantirganligi aniqlandi. *"Fantaisie"*, shuningdek, *"chimères"*, *"rêveries"*, *"ravasseries"*, *"songes"* kabi shakllarda tasavvur, xayol, sezgi, noaniqlik va haqiqatni izlash jarayoni bilan bog'landi. Tahlillar davomida *"proverb"* xalq donishmandligi, kundalik nutq va umumlashgan tajribani ifodalovchi birlik sifatida *"sermo quotidianus"*ning tabiiylik, soddalik va kommunikativ ishonchlilikka yo'naltirilgan uslubiy-pragmatik xususiyatlari asosida qo'llanganligi aniqlandi.

"Métaphore" va *"fiction"* terminlari Monten diskursida fikrni obraz orqali tashkil etish hamda murakkab g'oyalarni bilvosita ifodalash mexanizmi sifatida yoritildi. *"Métaphore"* alohida ritorik bezak sifatida emas, balki fikr, obraz, analogiya va anglashni bog'lovchi kognitiv-semantik vosita sifatida talqin qilinishi,

[56] Montaigne M. de. Les Essais. – Paris: Gallimard, 2009. – P.1152

Сканировано с CamScanner

shuningdek, *"imageur"* tushunchasi orqali muallifning tasvir yaratish usuli bilan bog'liqligi ham ko'rildi. Tahlillarga ko'ra *"fiction"* badiiy uydirma doirasidan chiqib, huquqiy-falsafiy diskurs, tasavvur, talqin va bilish jarayonini ifodalovchi birlik sifatida *"fiction légitime"* va *"fiction formulaire"* shakllarida namoyon bo'ldi. Shu asosda adabiyotshunoslik terminlari ifoda shakli, stilistik funksiya va kognitiv mazmun birligida voqelanib, matnda bilish, talqin qilish va ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini yuzaga keltiruvchi lingvokognitiv birliklar sifatida o'rganildi.

Mishel de Montenning "Les Essais" asari fransuz tilshunoslik terminlarining mualliflik diskursida voqelanishi, ularning mushtarak va differensial belgilarini aniqlash uchun asosiy tahliliy manba sifatida tadqiq etildi. Asarda *"langue"* termini oddiy aloqa vositasi emas, balki tafakkur, idrok va ifoda bilan bog'liq ko'p qatlamli hodisa sifatida talqin qilinadi. Monten tilni qat'iy grammatik me'yorlar doirasida ko'rmaydi, balki *"orthographe du temps"*, *"licence"*, *"variation"*, *"langue illustre"*, *"langue en devenir"* kabi ifoda shakllari orqali doimiy harakatdagi, tarixiy va individual tajriba bilan boyib boruvchi hodisa sifatida talqin qiladi.

Monten matnida *"polysémie"*, *"bilinguisme"* va *"orthographe"* terminlari tilning semantik ochiqligi, ikki tillilik tajribasi va yozuvdagi tarixiy beqarorlikni ifodalovchi tushunchalar sifatida namoyon bo'ldi. *"Polysémie"* ko'p ma'nolilik, talqin imkoniyati va falsafiy nutqning ochiq tabiatini bildirib; *"signifié multiple"*, *"référent variable"*, *"Que sais-je?"*, *"suspension du jugement"* kabi birliklar orqali so'z ma'nosining kontekstga qarab o'zgara borishi qayd etildi. *"Bilinguisme"* Montenda lotin tilining intellektual-falsafiy namunasi, fransuz tilining shaxsiy ifoda va yozuv tili sifatidagi vazifasini oydinlashtirdi, *"citations"*, *"paraphrases"*, *"allusions"* terminlari matndagi ikki tillilikning ilmiy, estetik va diskursiv qatlamlarini yuzaga chiqardi. Shuningdek, *"orthographe"* termini imlo me'yori, yozuv erkinligi, fonetik beqarorlik va tarixiy shakllanish jarayoni bilan bog'liq holda tadqiq qilindi.

"Écriture" va *"parole"* terminlari Monten diskursida yozuv va nutqning o'zaro yaqinligini, fikr, xotira, ovoz, axloqiy mas'uliyat va shaxsiy tajriba bilan bog'liqligini ifodaladi. *"Écriture"* o'zlikni anglash, fikrni ushlash, xotirani jonlantirish va mualliflik ovozini matnga ko'chirish vositasi sifatida *"parole en puissance"*, *"voix au papier"*, *"mémoire vive"* kabi shakllarda namoyon bo'ldi. Shuningdek, *"parole"* ichki fikrning tashqi ifodasi, insoniy aloqa, axloqiy javobgarlik va sadoqat belgisi sifatida *"parole donnée"*, *"témoin de l'âme"*, *"être avec les autres"* kabi ma'nolar bilan bog'landi.

Tadqiqotning "Ingliz va fransuz tillarida terminologik tizimlarning kognitiv-semantik integratsiyasi va interferensiyasi" nomli faslida tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlari muayyan til jamoasining madaniy-kognitiv tafakkuri, tarixiy taraqqiyoti, ilmiy an'analari va estetik qadriyatlarini ifodalovchi lingvistik birliklar sifatida tahlil qilindi. Ingliz va fransuz terminologik tizimlari tashqi formal o'xshashliklarga ega bo'lsa-da, ularning ichki semantik tuzilishi, konseptual asoslari va diskursiv vazifalarida lingvomadaniy tafovutlar mavjudligi aniqlandi. Ingliz terminologiyasi empirik-amaliy tafakkur, semantik moslashuvchanlik, pragmatik

Сканировано с CamScanner

qo'llanish va individual idrok bilan bog'liq holda aks etib, fransuz terminologiyasi ratsionalistik yondashuv, normativlik, konseptual aniqlik, estetik izchillik va akademik standartlar bilan aloqador tarzda talqin qilindi.

Shu bilan birga, terminologik integratsiya va interferensiya hodisalari janr terminlari, poetik vositalar, sintaktik, morfologik, pronominal, semantik hamda leksik birliklar misolida yoritildi. *"Absurd;* [57] *l'absurde* [58] *", "allegory;* [59] *allégorie* [60] *", "epic;* [61] *épopée* [62] *", "satire;* [63] *satire* [64] *", "bildungsroman;* [65] *roman d'apprentissage* [66] *", "metafiction;* [67] *métarécit* [68] *"* kabi janr terminlari umumiy semantik maydonga ega bo'lsa-da, ingliz an'anasida psixologik tahlil, hayotiy voqelik, sahnaviy dinamika va individual tajriba bilan, fransuz an'anasida falsafiy umumlashtirish, strukturaviy izchillik va estetik kompozitsiya bilan bog'liq holda aks etishi aniqlandi.

"Alliteration;allitération [69] *", "pun;calembour* [70] *", "symbol;symbole* [71] *", "narrative;narration*[72]*", "register;registre*[73]*"* kabi birliklar orqali poetik va diskursiv vositalarning ikki madaniyatda o'xshash funksiyaga ega bo'lishi, biroq ularning qo'llanish maqsadi, stilistik qiymati va kognitiv talqini farqlanishi ham ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, *"sentence; phrase*[74]*", "subject; sujet*[75]*", "word order; ordre des mots"*[76], *"affix; affixe*[77]*", "inflection; flexion*[78]*", "pronoun; pronom*[79]*", "article*

---

[57] C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – Oxford: 2001.– P.1.
[58] Robert Le Grand Robert de la Langue Française. – Paris: 2001.– P.8.
[59] C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – Oxford: 2001.– P.5.
[60] P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. – Paris: 2001.– P.44.
[61] C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – Oxford: 2001.– P.81-82.
[62] P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. – Paris: 2001.– P.611.
[63] C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – Oxford: 2001.– P.228.
[64] P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. – Paris: 2001.– P.1521.
[65] C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – Oxford: 2001.– P.27.
[66] P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. – Paris: 2001.– P.1584.
[67] C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – Oxford:2001.– P.151.
[68] https://www.lalanguefrancaise.com/dictionnaire/definition/metatextualite#0
[69] C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – Oxford. 2001.– P.6.; P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. Paris. 2001.– P.20.
[70] C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – Oxford. 2001.– P.178-209.; P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. – Paris. 2001.– P.221.
[71] C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – Oxford: 2001.– P.252.; P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. – Paris: 2001. – P.1626.
[72] C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – Oxford: 2001.– P.165.; P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. – Paris: 2001. – P.1136.
[73] C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – Oxford. 2001. – P.215.; P.Robert Le Grand Robert de la Langue Française. – Paris. 2001. – P.1435.
[74] C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – Oxford: 2001. – P.189.; Dubois J., Giacomo F.Guespin L. Dictionnaire de linguistique. – Paris: 2002. – P.416.
[75] The Oxford English Dictionary. – Oxford: 1989. – p.1614.; Dubois J., Giacomo F.Guespin L. Dictionnaire de linguistique. – Paris: 2002. – P.506-507.
[76] C.Baldick. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. – Oxford. 2001. – P.255.; Dubois J., Giacomo F.Guespin L. Dictionnaire de linguistique. – Paris: 2002.– P.337.
[77] Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. – Cambridge: 2013.– P.16.; Dubois J., Giacomo F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. – Paris: 2002.– P.24.
[78] Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. – Cambridge: 2013. – P.227– 228.; Dubois J., Giacomo F.Guespin L. Dictionnaire de linguistique. – Paris. 2002. – P.204.
[79] Brown K., Miller J. The Cambridge Dictionary of Linguistics. – Cambridge. 2013. – P.437.; Dubois J., Giacomo F.Guespin, L. Dictionnaire de linguistique. – Paris: Larousse, 2002. – P.356-357.

Сканировано с CamScanner

défini; indéfini" [80], "*polysemy; polysémie* [81] ", "*deixis; déixis* [82] ", "*loanword; emprunt*[83] " kabi parallel terminlar asosida ingliz va fransuz tillaridagi grammatik, semantik va leksik tizimlarning o'zaro yaqinligi hamda farqlanish mezonlari ochib berildi. Ingliz terminologiyasida funksional soddalik, kommunikativ qulaylik, kontekstual moslashuvchanlik va pragmatik aniqlik ustuvorligi, fransuz terminologiyasida grammatik izchillik, normativ aniqlik, formal mukammallik, estetik tartib va madaniy rasmiylik yetakchiligi aniqlandi. Shu asosda terminologik integratsiyaning umumiy ilmiy-semantik maydon doirasida shakllanishi, interferensiyaning terminlarning ingliz va fransuz tillarida turlicha madaniy, kognitiv hamda diskursiv talqin qilinishi orqali namoyon bo'lishi asoslab berildi.

XULOSA

Tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlarining struktur-semantik hamda kognitiv xususiyatlarini tadqiq qilish natijasida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarga kelindi:

1. Ingliz va fransuz tillarida shakllangan tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik terminlarini o'rganishga doir xorijiy va o'zbek tilshunosligidagi nazariy qarashlar umumlashtirildi. Terminlarning semantik-paradigmatik munosabatlari, gnoseologik va epistemologik asoslari, kognitiv talqini hamda diskursiv xususiyatlarini yoritishda struktur-semantik, konseptual, lingvokognitiv va lingvokulturologik yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi belgilandi. Natijada terminologik birliklarning faqat maxsus tushunchalarni nomlovchi vosita emas, balki til, tafakkur va ijtimoiy-madaniy tajriba o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi ko'p qatlamli birlik ekanligi asoslandi.

